

SHARQ FALSAFASIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR VA ULARNING YOSHLARNI YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXS ETIB TARBIYALASHDAGI O’RNI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-317-323>

Tursunboyev Abdulahad Abdubanno o‘g‘li
TDSHU ”Sharq falsafasi va germentika”
kafedra 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Po‘latova M.R.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq falsafasida shakllangan axloqiy qadriyatlar tizimi, ularning tarixiy, falsafiy va ma’naviy asoslari hamda yosh avlodni yuksak ma’naviyatli shaxs etib tarbiyalashdagi o‘rni keng qamrovda yoritiladi. Sharq mutafakkirlari merosi, xususan, Abdulla Avloniy ta’limoti asosida axloqiy tarbiyaning mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada Islomiy manbalar -Qur’on oyatlari, hadislar va zamonaviy ulamolar fikrlari asosida ma’naviyat va axloqning mazmuni boyitiladi.

Kalit so‘zlar: Sharq falsafasi, axloqiy qadriyatlar, ma’naviyat, komil inson, Abdulla Avloniy, Qur’on, hadis, tarbiya.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida yosh avlodni yuksak ma’naviyatli shaxs etib tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, turli madaniy va mafkuraviy ta’sirlarning ortishi yoshlar ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, ularni mustahkam axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalash zarurati ortib bormoqda.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti ma’naviyatga quyidagicha ta’rif beradi:

“Ma’naviyat - insonni ruhan poklanishga, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuchdir.¹”

Ushbu ta’rif ma’naviyatning inson hayotidagi o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Sharq falsafasida axloqiy qadriyatlar insonning ichki kamoloti va jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Bu qadriyatlar insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot, balki ma’naviy mavjudot sifatida shakllantiradi.

Halollik, adolat, sabr, qanoat, mehr-oqibat kabi fazilatlar Sharq tafakkurida asosiy axloqiy mezonlar sifatida qaraladi. Ushbu qadriyatlar insonni komillikka yetaklaydi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Sharq falsafasining ajralmas qismi bo‘lgan islomiy ta’limotlarda axloq masalasi markaziy o‘rin tutadi. Qur’oni karimda insonning axloqiy pokligi, rostgo‘yligi va adolatli bo‘lishi ko‘p bora ta’kidlangan.

Masalan, Qur’onda shunday deyiladi:

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – B.19.

إِنَّ اللَّهَ يَأْمُرُ بِالْعَدْلِ وَالْإِحْسَانِ وَإِيتَاءِ ذِي الْقُرْبَىٰ وَيَنْهَىٰ عَنِ الْفَحْشَاءِ وَالْمُنْكَرِ وَالْبَغْيِ عَظِيمٍ لَّعَلَّكُمْ تَذَكَّرُونَ

“Albatta, Alloh adolatga, ehson qilishga, qarindoshlarga yaxshilik qilishga amr etadi va fahsh ishlardan, munkar ishlardan hamda zulmkorlikdan qaytaradi. U sizlarga va’z qiladi. Shoyadki, eslasangiz”². (Nahl surasi 90-oyat)

Bu oyatda Alloh taolo insoniyat uchun asosiy axloqiy tamoyillarni belgilab beradi: adolat, ehson (yaxshilik) va qarindoshlarga g’amxo‘rlik qilish. Shu bilan birga, u fahsh ishlar, munkar (yomonlik) va zulmdan qaytaradi.

Sharq falsafasidagi axloqiy qadriyatlar aynan shu uch asosga tayanadi: jamiyatda adolatni qaror toptirish, boshqalarga yaxshilik qilish va ijtimoiy rishtalarni mustahkamlash. Bu qadriyatlar yoshlarni nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviyatli, halol va masuliyatli shaxs etib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Oyatdan kelib chiqib aytish mumkinki, agar yoshlar ongiga adolat, mehr-oqibat va yaxshilik singdirilsa, ular jamiyatda ezgulikni yoyuvchi, yomonlikdan yiroq insonlar bo‘lib yetishadi. Bu esa Sharq falsafasining asosiy maqsadi - komil insonni tarbiyalash bilan bevosita bog‘liqdir.

Yana bir oyatda:

فَمَنْ يَعْمَلْ مِثْقَالَ ذَرَّةٍ خَيْرًا يَرَهُ

“Kim zarra miqdoricha yaxshilik qilsa, uni ko‘radi.” (Zalzala surasi, 7-oyat)³.

Bu oyat insonning har qanday, hatto eng kichik yaxshiligi ham behuda ketmasligini bildiradi. Alloh taolo har bir amalni qadrlaydi va uni albatta ko‘rsatadi.

Sharq falsafasidagi axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan bu oyat yoshlarni mayda yaxshiliklarga ham befarq bo‘lmaslikka, har bir harakat uchun mas’uliyatni his qilishga undaydi. Chunki komil inson tarbiyasi katta ishlardan emas, balki kundalik kichik ezgu amallardan boshlanadi.

Demak, bu oyat yoshlarni halollik, ezgulik va mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni har bir ishda yaxshilik qilishga intiluvchi yuksak ma’naviyatli shaxs etib shakllantiradi.

Bu oyatlar insonni doimo ezgulikka undaydi va har bir amal uchun javobgarlik hissini shakllantiradi.

Hadislarda ham axloqiy qadriyatlar alohida ulug‘lanadi.

إِنَّمَا بُعِثْتُ لِأَتَمِّمَ مَكَارِمَ الْأَخْلَاقِ

“Men go‘zal axloqni mukammal qilish uchun yuborildim”⁴ Bu hadisda Muhammad (s.a.v.) o‘z risolatining asosiy maqsadini - insonlarda go‘zal axloqni mukammal darajaga yetkazish ekanini bayon qilmoqda. Ya’ni, din faqat ibodatlar majmui emas, balki insonning xulq-atvori, muomala madaniyati va ichki pokligini tarbiyalashga qaratilgan.

Sharq falsafasidagi axloqiy qarashlar ham aynan shu g‘oyaga hamohang: insonning haqiqiy kamoloti uning odob-axloqi, halolligi va boshqalarga munosabatida namoyon bo‘ladi.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. “Hilol Nashr” -Toshkent: 2022. 3-Jild. 123, -b.

³ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjima va tafsiri. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. 455, -b.

⁴ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar Xazinasi. -Toshkent: “Hilol Nashr”, 2022. 2-Juz 255 -b

Shu bois bu hadis yoshlarni yaxshi xulqli, odobli va jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. U komil insonni shakllantirishda axloqni asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi.

Yana bir hadisda:

عن عبد الله بن عمرو رضي الله عنهما قال: لَمْ يَكُنِ النَّبِيُّ صَلَّى اللهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ وَكَانَ يَقُولُ:
* [صحيح] [متفق عليه]. * أَحْسَنُكُمْ أَخْلَاقًا.

“Sizlarning eng yaxshilaringiz - axloqi eng go‘zal bo‘lganlaringizdir.” Bu hadisda insonning haqiqiy qadr-qimmati uning boyligi yoki mavqeida emas, balki go‘zal xulq-atvorida ekanligi ta‘kidlanadi. Yaxshi muomala, halollik, sabr va mehr-oqibat insonni boshqalardan ustun qiladi.

Bu hadisda insonning haqiqiy qadr-qimmati uning boyligi yoki mavqeida emas, balki go‘zal xulq-atvorida ekanligi ta‘kidlanadi. Yaxshi muomala, halollik, sabr va mehr-oqibat insonni boshqalardan ustun qiladi.

Hadisdan olinadigan foydalar:

* Mo‘min kishi yomon, behayo so‘zlardan va yomon ishlardan uzoq bo‘lishi kerak.

* Rasululloh (s.a.v.)ning axloqlari mukammal bo‘lib, ulardan faqat yaxshi amal va pok so‘z chiqadi.

* Go‘zal xulq - musobaqa maydonidir; kim bunda oldinda bo‘lsa, u eng yaxshi va iymoni eng mukammal mo‘minlardan bo‘ladi.⁵

Sharq falsafasidagi axloqiy qarashlarga ko‘ra ham, komil inson -bu avvalo odobli va yuksak ma‘naviyatli shaxsdir. Shu bois bu hadis yoshlarni tashqi muvaffaqiyatdan ko‘ra, ichki poklik va yaxshi xulqni ustuvor qilishga undaydi. Bu esa jamiyatda sog‘lom muhit va o‘zaro hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu fikrlar axloqning inson kamolotidagi asosiy mezon ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiya masalasi hayotiy zarurat sifatida talqin etiladi.

Avloniy shunday deydi:

“Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”⁶

Avloniy bu yerda tarbiyani faqat maktab yoki oiladagi odob berish jarayoni sifatida emas, balki insonning butun ma‘naviy-axloqiy shakllanishi deb ko‘radi. Uning nazarida tarbiya -bu insonning fikrlashi, xulqi, dunyoqarashi va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydigan asosiy kuchdir.

Shuningdek, bu jumlada qarama-qarshi tushunchalar (hayot-mamot, najot-halokat, saodat-falokat) keltirilishi bejiz emas. Bu orqali u tarbiyaning natijasi o‘ta keskin bo‘lishini, ya‘ni u yoki yuksaltiradi, yoki tubanlashtiradi degan g‘oyani urg‘ulaydi.

⁵ (<https://hadeethenc.com/ar/browse/hadith/5803>)

شرح وترجمة حديث: إن من خياركم أحسنكم أخلاقاً - موسوعة الأحاديث النبوية

⁶ Shukurxo‘jayev N.Z., “Abdulla Avloniyning ‘Turkiy guliston yoxud axloq’ asarining falsafiy tahlili”, ORIENS, 2025, 5(22), May.

Shukurxo‘jayev N.Z., “Abdulla Avloniyning ‘Turkiy guliston yoxud axloq’ asarining falsafiy tahlili”, ORIENS, 2025, 5(22), May. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15715653>

Yana bir muhim jihat - Avloniy bu fikr bilan jamiyatga murojaat qiladi. Ya’ni: yaxshi tarbiya olgan inson - jamiyat taraqqiy etadi, yomon tarbiya olgan inson - jamiyat inqirozga yuz tutadi

Demak, tarbiya faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy va milliy ahamiyatga ega masala sifatida talqin qilinadi

Bu fikr tarbiyaning inson hayotidagi beqiyos ahamiyatini ifodalaydi. Uning qarashlarida axloqiy tarbiya insonni komillikka yetkazuvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo’ladi.

Sharq falsafasida komil inson tushunchasi insonning eng yuksak darajadagi kamolotini ifodalaydi. Bunday inson yuksak axloqiy fazilatlar, chuqur bilim va mustahkam irodaga ega bo’ladi.

Yoshlarni ana shunday komil inson etib tarbiyalashda axloqiy qadriyatlar muhim o’rin tutadi. Bu qadriyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularning hayotiy yo’lini belgilaydi hamda jamiyatda munosib o’rin egallashiga yordam beradi.

Sharq falsafasida komil inson tushunchasi inson kamolotining eng oliy darajasini ifodalaydi. Bu g’oya insonning ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan mukammal rivojlanishini anglatadi. Komil inson o’zida halollik, adolat, sabr, saxovat, ilmga intilish kabi fazilatlarni mujassam etadi.

Tasavvuf ta’limotida komil inson ilohiy haqiqatga yaqinlashgan, nafsini poklagan va ruhiy yetuklikka erishgan shaxs sifatida talqin etiladi. Bu tushuncha Sharq tafakkurining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Mashhur adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov o’zining “Komil inson” konsepsiyasiga oid tadqiqotlarida bu tushunchaning chuqur falsafiy mohiyatini ochib beradi. U komil insonni faqat diniy yoki nazariy tushuncha sifatida emas, balki hayotiy ideal sifatida talqin etadi.

Olimning ta’kidlashicha:

“Komil inson -bu o’z nafsini yenga olgan, qalbi pok, iymoni mustahkam va jamiyat oldidagi burchini anglagan shaxsdir.”

Yana bir o’rinda u shunday yozadi:

“Komillik insonning o’z ustida ishlashi, o’zini anglash va o’zini tarbiyalash orqali erishiladigan jarayondir.”

Najmiddin Komilov komil inson g’oyasini tasavvufiy meros bilan bog’lab, uni insonning ichki dunyosini boyituvchi, ruhiy poklanishga yetaklovchi jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, komillik – bu tayyor holat emas, balki uzluksiz kamolot jarayonidir.

Shuningdek, u quyidagicha fikr bildiradi:

“Komil inson jamiyatdan uzilgan holda emas, balki jamiyat ichida yashab, unga foyda keltirgan holda shakllanadi.”⁷

Sharq tasavvuf tafakkurining yirik namoyandalaridan biri bo’lgan ta’limotida axloqiy qadriyatlar, xususan halollik, mehnatsevarlik va qalb pokligi markaziy o’rin egallaydi. asarida keltirilishicha, uning birinchi xalifasi Alouddin Attor hazratlari Naqshbandning sunnatga qat’iy amal qilganini, halol luqmani alohida ta’kidlab,

⁷ Najmiddin Komilov. Tasavvuf -Komil inson tushunchasi. –Toshkent: “Yozuvchi”, 1996. 272 –B.

shubhali narsalardan qat’iy tiyilishga chaqirganini bayon etadi. Ularning suhbatlarida tez-tez zikr etilgan “Ibodati o‘n qism bo‘lsa, uning to‘qqiz qismi halol rizq izlashdadir”⁸ mazmunidagi hadis ushbu ta’limotning amaliy mohiyatini ifodalaydi.

Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali⁹ qalamiga mansub “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” kitobida Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyasi – “Dil ba yoru, dast ba kor” insonni qalban Alloh bilan bog‘liq holda, amalda esa halol mehnat bilan yashashga undaydi. Bu g‘oya inson faoliyatining har bir jihati Alloh roziligi uchun, pok niyat va ixlos bilan bajarilishi lozimligini anglatadi. “Dast ba kor” talabi insonni jamiyat hayotida faol bo‘lishga, oila va el-yurt manfaatiga xizmat qilishga chorlaydi, “Dil ba yor” esa bu faoliyatning ma’naviy asosini belgilaydi.

Birinchi Prezident Islom Karimov ham Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi va uning hayotdan uzilmagan ta’limoti haqida alohida to‘xtalib:

“Ota-bobolarimiz ulug‘ avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo‘yib, uni “Bahouddini Balogardon” deb ta’riflab kelishida teran ma’no bor. Uning “Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin”, degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma’no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddi shu bugun aytilgandek jaranglaydi”¹⁰, – deydi.

Hazrat Bahouddin Naqshband o‘z hayotida ushbu tamoyillarga qat’iy amal qilgan. U dehqonchilik bilan shug‘ullangan, arpa va mosh ekib, o‘z mehnati bilan rizq topgan, hatto chorvasiga ham o‘zi qaragan. U zotning rizqi o‘z mehnati mahsuli bo‘lib, bu halollik va poklikning amaliy namunasi. Shuningdek, uning kimxobga naqsh solish hunari bilan mashg‘ul bo‘lgani, shu bois “Naqshband” nomi bilan mashhur bo‘lgani ham manbalarda qayd etiladi. Bu kasb orqali u nafaqat moddiy ehtiyojini qondirgan, balki borliqdagi ilohiy go‘zallikni anglash va qalbdagi aks ettirish g‘oyasini ham ifodalagan¹¹.

Bahouddin Naqshbandning hayot tarzida kamtarlik va qanoat alohida o‘rin tutgan. U xizmatkor tutmagan, oddiy hayot kechirgan va insonni qul qilish mumkin emasligi haqidagi fikrni ilgari surgan. “Qullik xo‘jayinlik bilan mos kelmaydi” degan hikmati uning insonparvarlik qarashlarini yaqqol ifodalaydi.

Menda na gilam boru na gilamni tozalovchi,

Na turk g‘ulomiyu na suyanadigan kishi.

Boshini dumiga qo‘ygan itlar kabi,

Tun bo‘yi butun jismim xush.

Bu misralardan ko‘rinadiki, Bahouddin, birinchidan, mol-mulk jamlashga mehr qo‘ymagan. Faqat ehtiyoji uchun kerakli narsalarni saqlagan va shularga qanoat qilgan. Shuning uchun ham xizmatkorga muhtoj bo‘lmagan. Haqiqiy bandalik maqomida bo‘lib, ya’ni Allohgagina bo‘ysunib, Allohning boshqa yaratganlariga muhabbat bilan

⁸ Islom. Ensiklopediya: Shayx Abdulaziz Mansur tahriri I-80 ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

⁹ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.

¹⁰ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.39.

¹¹ Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining „Maqomoti Xoja Naqshband“ „Bahouddin Naqshband“, — T., 1993. 45, - b.

qarab, Allohga tavakkal qilib, kunlarni ibodat bilan o‘tkazgan. Uning “Birorta insonni qul qilish, xizmatkor qilish mumkin emas”, degan g‘oyasi insonparvarlik ruhida bo‘lib, inson qadrini ulug‘laydi. Keltirilgan baytlarda ham mol-dunyoga berilmaslik, oddiy va pok hayot kechirish, Allohga tavakkal qilib yashash g‘oyalari ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda: Sharq falsafasida shakllangan axloqiy qadriyatlar tizimi inson kamolotining ajralmas asosi sifatida namoyon bo‘lib, u shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar halollik, adolat, sabr, qanoat, mehr-oqibat kabi fazilatlar orqali insonning ichki dunyosini boyitadi, uning xulq-atvorini tartibga soladi va jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglashiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Sharq falsafasi insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot, balki yuksak ma’naviy mohiyatga ega bo‘lgan barkamol shaxs sifatida talqin etadi.

Islomiy manbalar - Qur’oni karim oyatlari va hadislar - axloqiy qadriyatlarning mustahkam ilohiy asosini tashkil etadi. Ushbu manbalarda insonni adolatli bo‘lishga, ezgulik qilishga, halol mehnat bilan yashashga va har bir amal uchun mas’uliyatni his etishga undovchi g‘oyalar ilgari suriladi. Bu esa yoshlar ongida nafaqat diniy e’tiqod, balki yuksak axloqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, har bir amalning, hatto eng kichik yaxshilikning ham qadrlanishi haqidagi qarashlar yoshlarni mas’uliyatli, ongli va ijtimoiy faol shaxs etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari merosida axloqiy tarbiya masalasi markaziy o‘rin tutadi. Abdulla Avloniy tarbiyani hayot-mamot darajasidagi muhim ijtimoiy hodisa sifatida talqin etib, uning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi. Najmiddin Komilov esa komil inson g‘oyasini falsafiy jihatdan asoslab, insonning o‘z ustida ishlashi, o‘zini anglash va ma’naviy o‘sish jarayonini komillikning muhim sharti sifatida izohlaydi. Ushbu qarashlar yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tasavvuf ta’limotida, xususan, merosida ifodalangan “Dil ba yoru, dast ba kor” tamoyili axloqiy qadriyatlarning nazariy va amaliy uyg‘unligini ta’minlovchi muhim konsepsiya hisoblanadi. Ushbu g‘oya insonning qalban pok bo‘lishi bilan bir qatorda, uning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, halol mehnat qilishi va o‘z faoliyatini Alloh roziligi yo‘lida amalga oshirishini talab etadi. Bu esa ma’naviyat va mehnat, e’tiqod va amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, Sharq falsafasidagi axloqiy qadriyatlar tizimi yoshlarni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli va komil inson sifatida shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlarni zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimiga samarali integratsiya qilish orqali barkamol avlodni tarbiyalash, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash mumkin. Bu esa o‘z navbatida jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – B.19.

2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so‘z boshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
3. Islom. Ensiklopediya: Shayx Abdulaziz Mansur tahriri I-80 ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
4. Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining „Maqomoti Xoja Naqshband“ „Bahouddin Naqshband“, — T., 1993. B, 243.
5. Najmiddin Komilov. Tasvvuf -Komil inson tushunchsi. –Toshkent:, “Yozuvchi”, 1996. B, 272.
6. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolari tarjima va tafsiri. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020. B, 550.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar Xazinasasi. – Toshkent: „Hilol Nashr”, 2022. 2-Juz, B, 455.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. “ Hilol Nashr” - Toshkent: 2022. 3-Jild. B,342.

Internet manbalari

1. (<https://hadeethenc.com/ar/browse/hadith/5803>)
2. Shukurxo‘jayev N.Z., “Abdulla Avloniyning ‘Turkiy guliston yoxud axloq’ asarining falsafiy tahlili”, ORIENS, 2025, 5(22), May. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15715653>